

## О‘ЗБЕК RAQS SAN’ATINING RIVOJLANISH YO‘LLARI

*Abdimurodov Madiyor Egamurod o‘g‘li*  
*Surxondaryo viloyati Jarqo‘rg‘on tumani*  
*O‘zbekiston Xoreografiya Akademiyasi*  
*Surxon raqs maktabi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o‘zbek milliy raqs san’ati tarixi, rivojlanishi, tarqqiyot bosqichlari, raqs san’ati maktablari va hududlaro milliy liboslarimizning o‘ziga xos xususiyatlari, shuningdek, raqs san’atini rivojlantirish bo‘yicha oshirilayotgan keng ko‘lamli ishlar, milliy raqs san’atining jahon hamjamiyati tomonidan e’tirof etilayotganligi keng bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** ijodkor, xalq, meros, raqqosa, professional, raqs, baletmeyster.

**Аннотация:** В данной статье рассмотрены история, развитие, этапы развития узбекского национального танцевального искусства, особенности наших танцевальных школ и региональных национальных костюмов, а также широкомасштабная работа по развитию танцевального искусства. Широко распространено мнение, что национальное танцевальное искусство признано мировым сообществом.

**Ключевые слова:** творец, народ, наследие, танцовщик, профессионал, танец, балетмейстер.

**Abstract:** This article examines the history, development, stages of development of the Uzbek national dance art, the features of our dance schools and regional national costumes, as well as large-scale work on the development of dance art. It is widely believed that the national dance art is recognized by the world community.

**Key words:** creator, people, heritage, dancer, professional, dance, choreographer.

O‘zbekistonning nomoddiy madaniy merosi o‘zbek xalqining bitmas-tuganmas boyligi bo‘lib, asrlar davomida boyitilib, avloddan avlodga o‘tib kelmoqda. Bu bebaho meros o‘zbek xalqning o‘zligi va g‘ururi hisoblanadi. O‘zbek xalq raqs san’ati uzoq tarixiy taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tdi. Ijodkor xalqimiz tomonidan yillar osha yaratilgan raqslar milliy raqs san’atining noyob durdonalari sanalib kelmoqda. O‘zbek raqs daholari yaratgan g‘oyaviy-badiiy jihatdan yuksak mumtoz raqslar xalqimizni asrlar davomida insonparvarlik, ona Vatanga muhabbat, jasorat, fidokorlik, kurashchanlik, go‘zal xulq ruhida tarbiyalashga yaqindan yordam berib kelmoqda. Kelajak avlodni voyaga yetkazish, xalq orasida haqiqiy insoniylik munosabatlarini shakllantirishda o‘zbek xalqining merosi bo‘lgan bugungi kunda muhim estetik tarbiya vositasi sifatida xizmat qilmoqda. Inson tarbiyasi estetik, ahloqiy-madaniy tarbiya sohalari bilan uzviy bog‘liqdir. O‘zbek raqs me’rosini o‘zlaridan oldingi avlodlardan qabul qilib, uni o‘nlab

yillar va asrlar mobaynida ko‘z qorachig‘idek saqlab kelgan ko‘pgina ijrochilarning nomlari ma’lum. Raqs san’ati asoschilari Yusufjon qiziq Shakarjonov, Ahmadjon Umurzoqov, Usta Olim Komilov, aka Buxor, Qimmatxon Sultonova, Sharofat To‘rayeva, Tamaraxonim kabi XIX asr oxiri XX asr boshlarida yashab o‘tgan o‘nlab taniqli raqs ustalarining nomlari mashhur. XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi raqs san’ati haqida shu davrda yashab ijod etgan birinchi raqs tadqiqotchisi I.G.Baxta Farg‘ona va Toshkent qadimgi raqslari va raqs ustalari to‘g‘risida ma’lumot yig‘gan. U XX asr boshlari va 20-yillarda Farg‘ona vodiysi, Xorazm va Buxoroda faoliyat boshlangan taniqli raqqosalar bilan uchrashib, muloqotda bo‘lgan. Haqiqatan ham, o‘zbek raqs san’ati boy madaniyatimizning ajralmas qismi xalqimizning dunyoni his qilish jarayonida o‘ziga xosliginini aks ettiradigan san’at turlaridan biridir. San’atning barcha turlari kabi raqs san’ati ham turmushi, hayot tarzi, tirikchilik o‘tkazishi jarayonida paydo bo‘lgan. Undagi harakatlar ham o‘z- o‘zidan paydo bo‘lib qolmagan. Tadqiqotchilar fikriga ko‘ra, raqs elementlari dastlab odamlar tomonidan ovlangan, ularning hayot kechirishlari uchun zarur bo‘lgan hayvonlarning harakatlariga taqliddan boshlangan. Keyinchalik ibtidoiy jamoa tuzumi davrida olovlar atrofida har xil harakatlar bilan aylanganligi, diniy marosimlar paytida raqsga tushishganligi, hatto oziqlanish uchun ovlaganlarida ov qurollarini ko‘tarib har xil harakatlar qilganliklari tarixdan ma’lum. Insoniyat jamiyat taraqqiyoti sari qadam qo‘yishi bilan o‘zlarining ehtiyojlari uchun ongli ravishda kurasha boshladilar. Diniy marosimlarda ham, turli xil bazm va yig‘inlarda qo‘l va oyoq harakatlari orqali his tuyg‘ularini namoyon eta boshladilar. Ma’lumotlarga qaraganda, qadimgi “Avesto” marosimlari teatrlashtirilgan holda musiqa, qo‘shiq va raqslar hamohangligida o‘tkazilgan. Bu marosimlarda “Avesto”ning mifologik qahramonlari - “Mitra”, “Anaxita”, “Humo”, “Jamshid”larning xislatlari va qahramonliklari va sifatleri alohida professional ijrochilar tomonidan taqdim etilgan. Hatto Markaziy Osiyoda eng mashhur xudolardan bo‘lgan “Anaxita”ga bag‘ishlab o‘tkazilgan marosimlarning katta qismini raqqoslar va aktyorlar tashkil etganligi haqida ma’lumotlar bor. [2:8] Shunday qilib, bugun butun dunyo uchun madaniyatning “yuragi” deb baholanadigan raqs san’atiga tamal toshi qo‘yilgan. O‘zbek milliy raqsi eng munavvar qadriyatlarni, insoniy fazilatlarini, milliy an’analarni ifoda etgan san’atdir. Milliy raqsalarimizdagi har bir harakat, ko‘z qarashlar, faqat millatimizga xos tarzda namoyon bo‘ladi. Ular xalqimizning hayoti, yashash tarzi, zavq-u shavqi, orzu- umidini ko‘rsatuvchi sahna asari, ohang va ritmga javoban inson yaralgan “aks-sado”dir. San’atshunos olim L.Avdeeva o‘zining “O‘zbek milliy raqsi tarixidan” nomli kitobida “Raqs- zamon va makonda mavjud san’at bo‘lib, bunda badiiy obraz inson gavdasining ritmik uyushgan tasviriy va ifodali harakatlari bilan yaratildi”, - deb yozadi. [3:12] Xalqimiz madaniyatga boy xalq. Yurtimizning qay go‘shasiga bormang, o‘ziga xos an’ana, betakror qadriyatlarga ro‘baro bo‘lamiz. Shu jumladan, har bir hududning o‘z milliy raqsi va milliy liboslari ko‘nglimizni shod etadi.

Raqs san'atining tarixi esa bevosita uni yaratgan xalqning tarixi bilan bog'liq. XX asr boshida (1927-1930-yillarda) xalq orasida yetishib chiqqan Muhiddin Qoriyoqubov boshchiligidagi badiiy truppada faoliyat ko'rsatgan Usta Olim Komilov, Yusuf Qiziq Shakarjonovlar iste'dodli san'atkorlari o'z saflariga oladilar. Usta Olim Komilovning shogirdlari Tamaraxonim, Mukarrama Turg'unboyeva bilan birgalikda o'zbek raqs san'ati maktabini yaratadilar. Usta Olim Komilov ijrosidagi betakror o'zbek doira usullariga Tamaraxonim va Mukarrama Turg'unboyeva raqs harakatlarini o'ylab topadilar, o'zlariga va truppadagi o'z tengdoshlariga raqs sahna shakllarini boshlaydilar. Ular ijrosidagi "Duchoba", "Katta o'yin" kabi ko'plab yakka va ommaviy raqs xalq tomonidan katta quvonch bilan kutib olingan. Asta-sekin davr o'tishi bilan iste'dodlar ko'payib raqqosalar safi kengaya bordi. Shuning uchun Usta Olim Komilov, Tamaraxonim, Mukarrama Turg'unboyevalar o'zbek raqs san'ati asoschilari hisoblanadilar. Ulardan qolgan "Tanovor", "Munojot", "Rohat", "Paxta", "Pilla" kabi asarlar ulkan raqs merosimizdir. An'anaviy san'atimizning ulkan bilimdoni ustoz Yusufjon qiziq Shakarjonov aytganlaridek, "Milliy musiqa san'atimiz bamisoli bir daraxt bo'lib, uning tomiri Xorazm, tanasi Buxoro, shoxlari Farg'onadir". [4:259] Shu bois, bugun o'zbek raqs san'atida o'ziga xos, o'z uslubiga ega bo'lgan Xorazm, Buxoro, Farg'ona raqs maktablari tan olingan. Dastlabki ommaviy sahna raqsida Tamaraxonim slavyan va kavkaz xalqlari an'alariga tayanib, bir qator saf, diagonal, doira usullaridan foydalanadi, qiyofalarning ritm-plastik haykalsimon turishini chekladi, harakatlarni "muloyimlashtirdi", raqs manzarasini "to'rtinchi devor" bo'lib turgan tomoshabinga burdi. Tamaraxonimning raqs san'ati xotin-qizlar ozodligiga chaqiriq sifatida maydonga kelgan bo'lsa, 30-yillardagi Mukarrama Turg'unboyevaning raqs san'ati shu harakatning navbatdagi bosqichiga aylandi. Bu bosqich Sharq ayollarining san'atga intilishdagi dadil qadam edi. Mukarrama Turg'unboyeva raqs xotin-qizlarning ijtimoiy hayotga faol arashuvining o'ziga xos ramzi bo'lib ko'rindi. Mukarrama Turg'unboyevaning lirik qahramoni o'zbek ayolning azaliy fazilatlarini hamda yuksak iroda bilan yangilikka, erkinlikka, ozodlikka intilishining ramzidir. Uning lirik raqs kishilarga ko'tarinki kayfiyat bag'ishlaydi. Bizning davrimizga kelib, afsonaviy o'zbek raqqosalari Tamaraxonim, Mukarrama Turg'unboyeva va Gavhar Matyoqubova har bir harakatga sayqal bergan holda, Xorazm xalq raqsini mukammallikka olib keldilar va shu bilan jahon sahnasini zabt etdilar. Bugun bu betakror san'at asari jahon hamjamiyati e'tiborini qozonmoqda. Shu bois, 2019-yil 12-dekabrda afsonaviy Lazgi raqsi O'zbekiston madaniy merosining elementi sifatida YUNESKONing insoniyatning nomoddiy merosi Rezentativ ro'yxatiga kiritildi. Yaqin besh yil ichida madaniyatimizga, san'atimizga, nomoddiy madaniy merosimizni asrab-avaylashga qaratilgan samarali ishlar e'tirofga loyiqdir. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-sentyabrda "Lazgi" xalqaro raqs festivalini tashkil etish va o'tkazish to'g'risida"gi PQ-4843-sonli qarori

qabul qilindi. Qarorga ko'ra, 2022-yildan boshlab har ikki yilda bir marotaba 25-30-aprel kunlari Xiva shahrida "Lazgi" xalqaro raqs festivalini hamda uning doirasida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyani o'tkazilishi belgilangan. Bugungi kunda ildam odimlab borayotgan G'arb mamlakatlari ham hatto bizning milliy merosimiz bo'lmish lazgi harakatlaridan andoza olib badiiy chiqishlar tayyorlayotganliklari, butun dunyo hamjamiyatida iliq kutib olinayotganligidan o'zingga sig'maysan kishi. Jumladan, 2021-yilda Dubay Opera sahnasida "Lazgi - qalb va muhabbat raqsi" balet pastanovkasining xalqaro primyerasi bo'lib o'tdi. [10: <https://yuz.uz>] Bunday quloqlarga xush yoquvchi xabarlar qalblarimizda faxr va iftixor tuyg'usini uyg'otadi. Raqs san'ati va raqqosalik kasbiga bo'lgan munosabatlarning ijobiy tomonga o'zgarishi uchun asosli sabab bo'lsa, ajab emas, albatta. Muhim yangiliklardan yana shuni aytmoqchimanki, 2022-yilda Turizm va sport vazirligining qo'llab-quvvatlashi ostida yosh umidli rejissyor Ixtiyor Baxtiyorov tomonidan suratga olingan "Lazgi" hujjatli filmi "Art Stream", "FiffLondon", "Blackboard", "Lift-Off Season Awards" va "IFFT" kabi qator nufuzli tadbirlarda "Raqs haqidagi eng yaxshi hujjatli film" deya tan olindi. [11: <https://yuz.uz>] Umuman xulosa qilib aytganimizda, madaniyat bu - o'zligimiz. O'zbek milliy raqs san'ati madaniyat va san'atimizning yo'g'on, mustahkam ildizlaridan biridir. San'atimizni raqs maktablarisiz tasavvur qilish qiyin. Raqs - insonlar ruhiyatini davolovchi, qalb torlarini chertuvchi, musiqa hamohangligida mukammal obraz yaratuvchi bebaho san'atdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Kuon Xo. O'zbekiston nomoddiy madaniy merosi ro'yxati. "Kamin-Press" MCHJ, "Adabiyot uchqunlari" MCHJ. Toshkent- 2016. - 72b
2. Sh.Qurbonova, X.Xursandov. Surxon raqs maktabi. "Nur sehri oshyonu" MCHJ bosmaxonasi. Toshkent - 2010. - 73b
3. J. Muydinov, A.G'ulomjonov. Musiqa san'ati orqali o'quvchilarning estetik dunyoqarashini shakllantirish.